

PEDAGOGIK MAHORAT

9
2023



ISSN 2181-6883

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

9-son (2023-yil, oktabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2023

MUNDARIJA

№	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
1.	<i>ELOV Ziyodullo Sattorovich</i>	Suitsidial xulq-atvorning zamonaviy psixologiyada o'rganilishi: tahlillar va nazariyalar	8
2.	<i>QODIROV Obid Safarovich</i>	Tarbiyasi qiyin o'smirlar xulq-atvori bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik muammolar	17
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
3.	<i>AXADOVA Komila Said qizi</i>	Raqamlashtirish jarayonida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	22
4.	<i>ESHMURADOV Olmosbek Elamanovich</i>	Oila barqarorligi uchun o'smir o'gil bolalarda oila kompetentini shakllantirish	30
5.	<i>ISMATOVA Dilafruz Tuymuratovna, BO'RONOVA Kamola Baxtiyorovna</i>	Muammoli oilalarga psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	34
6.	<i>ISMOILOVA Nurjaxon Zuxuriddinovna</i>	Talabalarda stressga barqarorlik va o'z-o'zini baholashning psixologik bog'liqligi	38
7.	<i>JULMATOVA Saodat Jur'atjonovna</i>	Musiqa psixologiyasi tarixi	43
8.	<i>MAMIROV Azim Холмурзаевич</i>	Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirish sifatlarini shakllantirish	49
9.	<i>MIRZOYEV Dilshod Po'lotovich</i>	Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarni innovatsion metodlar orqali o'qitishni takomillashtirish	53
10.	<i>MIRZAAXMEDOVA Gulshanoy Мансуржон қизи</i>	Bo'lajak tarix o'qituvchilarida analitik tafakkurni shakllantirishning zarurati	58
11.	<i>OLIMOVA Firuza Aslonovna</i>	Bo'lajak pedagoglarda stressli holatlarga barqarorlikni shakllantirishining ijtimoiy-psixologik omillari	63
12.	<i>QULIYEVA Shahnoza Halimovna</i>	Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ta'lim mazmunini tanlash tamoyillari	69
13.	<i>RASULOV Xaydar Raupovich, MUZAFFAROVA Mohinur Umarovna</i>	Maktab o'quvchilarining deduktiv tafakkurini rivojlantirish yo'llari haqida	74
14.	<i>RUSTAMOV Shavkat Shuxratovich</i>	Talabalarni innovatsion kompetentligini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	81
15.	<i>SHOYMARDONOVA Muxsina Raxmatovna</i>	Maktab o'qituvchilari orasida innovatsion faoliyatga ijobiy munosabatni rivojlantirishning pedagogik kompetensiyalari	87
16.	<i>TO'YMURODOV Abdurahmon Shuhrat o'g'li</i>	Favqulodda holatlarda harbiy xizmatchilarda kasbiy so'nishni keltirib chiqaruvchi omillar va ularning klassifikatsiyasi	92
17.	<i>ZARIPOVA Gulbahor Kamilovna</i>	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchi shaxsini shakllanishida pedagogik yondashish va uning kasb egallashida yetakchi ahamiyati	98
18.	<i>ДАУЛЕТОВА Гузал Муратбаевна</i>	Ўсмирларнинг ҳарбий академик лицей ҳаётига мослашишининг ижтимоий - психологик хусусиятлари ва мезонлари (“Темурбеклар мактаби” ҳарбий академик лицейи мисолида)	107
19.	<i>ИНОҚОВ Бахтиёр Рахимжонович</i>	Тезкор-қидирув ходимларида муваффақиятга эришиш мотивлари ривожланишининг психологик омиллари	113

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA TA‘LIM MAZMUNINI TANLASH TAMOYILLARI

Quliyeva Shahnoza Halimovna,

Buxoro davlat universiteti, Fizika-matematika fakul’teti,

“Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika” kafedrası dotsenti,

kuliyeva_shakhnoza@mail.ru

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda ta‘lim mazmunini tanlash tamoyillari berilgan. Oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanadigan mutaxassislariga pedagogik tamoyillardan insonparvarlik; hayot bilan uyg‘unlik; madaniyat bilan uyg‘unlik va hokazo; didaktik-metodik tamoyillardan ta‘lim va tarbiya birligi, nazariya va amaliyot birligi, ongillik va faollik, mustaqillik, tushunarlik, ilmiylik, tizimlilik va izchillik; ko‘rsatmalilik; ta‘lim oluvchilarning individual yosh xususiyatlarini inobatga olish; ta‘limda bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta va mustahkam o‘zlashtirish tamoyili; integrativlik, politexnik, unumli mehnat asosida o‘qitish; loyihalash tamoyillaridan ta‘lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili; ta‘lim mazmunining tashkiliy jarayon bilan aloqadorlik tamoyili; ta‘lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyillari bo‘yicha kompetensiyalar shakllantirilishi kerak.

***Kalit so‘zlar:** texnologik ta‘lim, ta‘lim mazmuni, tamoyil, pedagogik, didaktik-metodik, loyihalash, umumkompetensiya, kasbiy kompetensiya.*

ПРИНЦИПЫ ВЫБОРА СОДЕРЖАНИЯ ОБРАЗОВАНИЯ ПРИ ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

В статье представлены принципы выбора содержания образования при подготовке будущих учителей. Гуманизация педагогических возможностей специалистов, реализуемая через высшее образование; гармония с жизнью; гармония с культурой и т. д.; дидактико-методические принципы включают единство образования и воспитания, единство теории и практики, сознания и деятельности, самостоятельность, понятность, научность, системность и последовательность; поучительность; учёт индивидуальных возрастных особенностей обучающихся; принцип всестороннего и прочного усвоения знаний, навыков и квалификации в образовании; обучение на основе интегративной, политехнической, продуктивной работы; из принципов проектирования, принципа соответствия всех элементов содержания образования требованиям общества, науки, культуры и развития личности; принцип связи содержания образования с организационным процессом; компетенции должны формироваться по принципам соответствия содержания образования общей структуре.

***Ключевые слова:** технологическое образование, содержание образования, принцип, педагогический, дидактико-методический, проектирование, общая компетентность, профессиональная компетентность.*

PRINCIPLES OF CHOOSING EDUCATIONAL CONTENT IN THE TRAINING OF FUTURE TEACHERS

The article presents the principles of choosing the content of education when preparing future teachers. Humanization of the pedagogical capabilities of specialists, implemented through higher education; harmony with life; harmony with culture, etc.; didactic and methodological principles include the unity of education and upbringing, the unity of theory and practice, consciousness and activity, independence, understandability, scientific character, systematicity and consistency; instructiveness; taking into account the individual age characteristics of students; the principle of comprehensive and lasting acquisition of knowledge, skills and qualifications in education; training based on integrative, polytechnic, productive work; from the principles of design, the principle of compliance of all elements of educational content with the requirements of society, science, culture and personal development; the principle of connection between the content of education and the organizational process; competencies should be formed according to the principles of compliance of the content of education with the general structure.

***Key words:** technological education, content of education, principle, pedagogical, didactic and methodological, design, general competence, professional competence.*

Kirish. Modernizatsiyalash sharoitida fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo’yiladigan talablarni tubdan o’zgartirishni taqozo etmoqda va ana shu asosdan kelib chiqqan holda ta’lim mazmunini takomillashtirishni davrning o’zi ta’lim beruvchilarning oldiga muhim vazifa qilib qo’ymoqda. Hozirgi vaqtgacha ta’lim mazmunini loyihalash tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo’lsa, oliy ta’lim muassasalarining maqsadini ta’lim oluvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini o’zlashtirish tarzidan o’z-o’zini rivojlantirishga qaratilgan kompetensiyalarni kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda.

Kompetent yondashuv ta’lim oluvchilardan alohida-alohida bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirishni emas, balki ularni yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog’liqlikda o’z navbatida ta’lim mazmunini tanlash tizimi ham o’zgarishga uchraydi. Bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarini tayyorlashda ta’lim mazmunini tanlash va amaliyotda qo’llash o’z navbatida ta’lim jarayonida qo’yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funktsiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak texnologiya ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda ta’lim mazmuni deganda ta’lim oluvchilarning egallashi lozim bo’lgan bilim, ko’nikma, malaka hamda umumiy va kasbiy kompetensiyalarning aniq belgilangan hajmi va ko’lami tushiniladi.

Bo’lajak texnologiya ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda umumiy kompetensiyalar:

- dunyoqarash bilan bog’liq tizimli bilimlarga ega bo’lishi, gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisa haqida yaxlit tasavvurga ega bo’lishi:

- elektron axborot ta’lim muhitida ta’lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

- tegishli bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo’yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo’lishi va hokazo.

Bo’lajak texnologiya ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda kasbiy kompetensiyalar:

- umumkasbiy vazifalarni hal etishda fan va ta’limning zamonaviy muammolariga doir bilimlardan foydalanishga tayyorlashi hamda muvaffaqiyatli amalga oshirishga doir axboriy-didaktik ta’minotni yaratish va amalda qo’llash ko’nikmalariga ega bo’lish;

- texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;

- global doirada ta’lim tizimi rivojlanishining holati, asosiy yo’nalishi va qonuniyatlarini tahlil qilish, milliy va o’ziga xosliklardagi umumiy ko’rinishlarni ochib berish, xalqaro pedagogik tajribaning ijobiy salbiy jihatlari, milliy pedagogik madaniyatni boyitish, shakl va metodlarini aniqlashtira olish;

- umumiy o’rta ta’lim maktab o’quvchilarida estetik madaniyat va ijodkorlik, o’z-o’zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi, kommunikativlik, kommunikativ va amaliy faoliyatni rivojlantirish, kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir va hokazo.

MDH va xorijiy mamlakatlar olimlaridan V.I.Baydenko, A.A.Verbitskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnaya, O.N.Yarigin, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova, A.V.Xutorskiy, S.R.Berger, V.Grabe, J.Harmer, L.Harver va boshqalar tomonidan mehnat ta’limining mazmun mohiyati hamda o’qituvchilarning unumli mehnat mahsuldorligiga bo’lgan bilim, ko’nikmalarining shakllanishiga doir bir qancha ilmiy-tadqiqotlar olib borilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida bo’lajak mutaxassislar tayyorlashda pedagog olimlardan U.Nishonaliyev, A.R. Xodjaboyev, N.A. Muslimov, Z.Q. Ismoilova, Sh.S. Sharipov va boshqalar tadqiqot ishlari olib borganlar.

Ta’lim mazmunini tanlash tamoyillari bo’yicha N.A. Kayumovanning “Informatika o’qituvchisining metodik tizimini loyihalashtirish” maqolasida metodik tizimning ochiqlik; yaxlitlik; insoniy yo’naltirilganlik; moslik; uzoqni ko’ra olish; dasturlashganlik; kasbiy yo’naltirilganlik; vositalilik; muloqotlilik tamoyillari batafsil berilgan.

Asosiy qism. Ta’lim mazmuni takomillashib borish tavsifiga ega bo’lib, uni aniqlovchi asosiy omillarga quyidagilar kiradi:

1. jamiyatda fan, texnika va madaniyatning rivojlanganlik darajasi;

2. jamiyat tomonidan qo’yiladigan ijtimoiy buyurtma;

3. ta’limning maqsad va vazifalari;

4. kasbiy-pedagogik innovatsion faoliyat darajasi;

5. axborotlarning hajmi va ko’lami;

6. ta’lim oluvchilarning yosh xususiyatlari.

Bo’lajak texnologik ta’lim o’qituvchilarini tayyorlashda ta’lim mazmuni ya’ni davlat ta’lim standarti, malaka talablari, o’quv reja, o’quv dastur, o’quv adabiyotlardan iborat. Bo’lajak texnologiya ta’limi o’qituvchilarini tayyorlashda ta’lim mazmunini tanlash tamoyillarini ko’proq umumkasbiy va ixtisoslik

fanlarini o‘qitishda foydalaniladi. Ayniqsa, umumkasbiy fanlar blokidagi “Texnologiya ta’limi praktikumi” fanida kasbiy kompetentlikka ega bo’lsa, “Texnologiya ta’limi metodikasi” fanida metodik kompetentlikka ya’ni ta’lim tamoyillaridan qachon? qayerda? qanday qilib? qo‘llash bo‘yicha bilim, konikma va malakaga ega bo‘ladilar. Bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik, didaktik va metodik hamda loyihalash tamoyillarni inobatga olish zarur.

Demak, “Texnologiya ta’limi metodikasi” fanida talabalar umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida texnologiya fanidan dars o‘tish mahoratini o‘rganadi, buning uchun bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilar pedagogik tamoyillardan quyidagilarni bilishi kerak: insonparvarlik; hayot bilan uyg‘unlik; madaniyat bilan uyg‘unlik; ilmiylik; ta’limning fundamentalligi va amaliy yo‘nalganligi; ta’lim va tarbiyaning uyg‘unligi.

Ta’limning didaktik va metodik tamoyillari: ta’lim va tarbiya birligi, nazariya va amaliyot birligi, onglilik va faollik, mustaqillik, tushunarlik, ilmiylik, tizimlilik va izchillik; ko‘rsatmalilik; ta’lim oluvchilarning individual yosh xususiyatlarini inobatga olish; ta’limda bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta va mustahkam o‘zlashtirish tamoyili; integrativlik, politexnik, unumli mehnat asosida o‘qitish tamoyillaridan iborat.

Ta’lim va tarbiya birligi maktabda o‘quvchi yolg‘iz bilim, ko‘nikma va malakalarni egallabgina qolmaydi, balki har jihatdan mukammal tarbiyalanadi. Aqliy va jismoniy mehnat jarayonida xarakter xususiyatlari va hatti-harakat ko‘nikma va odatlarni tarbiyalaydi. O‘tilayotgan mavzu mazmunidan kelib chiqadigan tarbiyaviy tomonlarini to‘g‘ri belgilash ham uni ta’lim bilan birga bir butunlikda amalga oshirishni ta’minlash juda ahamiyatga ega.

Nazariya va amaliyot birligi ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyati ehtiyojlari asosida paydo bo‘lib, ana shu faoliyatga xizmat qilganligi va hayot bilan bog‘langanligi sababli, bu bilimlarni egallash uchun ularni mazmunan o‘zlashtirish va amalda qo‘llash lozim. O‘quvchilarni amaliy faoliyatga tayyorlash nazariy bilimlarni egallash jarayonidan boshlanadi. Keyinchalik u tajriba va amaliy mashg‘ulotlarda davom ettiriladi. Bu mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tajriba sharoitida olingan bilimlarini tekshiradilar, mustahkamlaydilar, chuqurlashtiradilar. Ularni amalda qo‘llanish ko‘nikma va malakalarini hosil qiladilar.

Onglilik va faollik, mustaqillik tamoyili o‘quvchilarda ilmiy bilimlarni hamda ularni amalda qo‘llash metodlarini ongli va faol egallab oladigan, ularda ijodiy tashabbuskorlik va o‘quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutqi rivojlanadigan bo‘ladi. O‘qitishdagi onglilik tamoyili o‘quvchilardagi ta’lim jarayonining aniq maqsadlarini tushunish, o‘rganilayotgan dalil, hodisa, jarayonlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishni tushungan holda o‘zlashtirib olish, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llay bilish kabi me‘yorlarni anglatadi.

Ta’limning tushunarlik tamoyili o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog‘lig‘iga yomon ta’sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta’limning tushunarli bo‘lishi o‘quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o‘qishning mazmunini to‘g‘ri aniqlash demakdir, ya’ni, har bir o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchilar egallab olishi zarur bo‘lgan bilim, amaliy ko‘nikma va malakalari hajmini to‘g‘ri aniqlashdir. Bu tamoyil o‘quv jarayonini o‘quvchilarda qiyinchiliklarni yengish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg‘usini yuzaga keltirishga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko‘zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o‘quv masalalarini yechishdagi ishonchsizlikni yo‘qotishga yordam beradi.

Ilmiylik tamoyili - o‘quvchilarga o‘rgatish uchun ilmiy jihatdan asoslangan, amalda sinab ko‘rilgan ma’lumotlar berilishini talab etadi. Ularni tanlab olishda fan va texnikaning eng so‘nggi yutuqlari va kashfiyotlaridan foydalanish kerak.

Ilmiy bilimlarni egallash jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash, tafakkur rivojlanadi. Har bir darsda o‘qitiladigan o‘quv materialining ilmiy mazmuni keng va chuqur bo‘lishi o‘quvchida nafaqat bilim, balki tafakkur hosil qilishi hamda uning ijodiy qobiliyatini shakllantirishi kerak. Buning uchun esa o‘qituvchi o‘z ilmiy saviyasini izchil ravishda oshirib borishi zamonaviy pedogogik texnologiyalar, kashfiyotlar va ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim. O‘quvchi o‘rganayotgan bilimlar, albatta nazariy tasdiqlangan va amalda sinalgan bo‘lishi kerak.

Tizimlilik va izchillik tamoyili o‘qitishni shunday tashkil etishni talab etadiki, bunda o‘quv fanlarini o‘qitish qat’iy mantiqiy tartibda olib boriladi. O‘quvchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini izchillik bilan egallab boradilar va ayni paytda amaliy vazifalarni hal qilish uchun ulardan foydalanishni o‘rganadilar. Tizimlilik va izchillik tamoyili pedogogik jarayonning hamma bo‘g‘inlarida amalga oshiriladi. Uning talablari darsliklar va dasturlarni tuzishda o‘z aksini topadi. O‘quv materialini to‘g‘ri taqsimlash ya’ni oddiydan murakkabga, oddiy operatsiyalardan qiyinroq operatsiyalarni bajarishga o‘tishni talab qiladi.

Ko‘rsatmalilik tamoyili - o‘qitishning ko‘rsatmaliligi shuni tasdiqlaydiki, agar o‘quvchilarda o‘rganilayotgan jarayonlarni narsa va hodisalarni bevosita idrok qilish bilan bog‘liq muayyan hissiy amaliy

tajriba bo‘lgan taqdiridagina ular bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtiradilar hamda ularda ilmiy tasavvur va tushunchalar hosil qilish mumkin. Bu tamoyil o‘qitish jarayonida turli sezgilardan: ko‘rish, eshitish, sezish va boshqalardan foydalanishni talab etadi. O‘qitish jarayonida o‘quvchilarda ko‘nikma va malakalar hosil qilish uchun mehnat usuli va operatsiyalarini ko‘rsatish keng qo‘llaniladi. Ko‘rsatmalilik o‘quvchilarni qiziqishini orttiradi va qiziqtiradi, o‘tilayotgan darsni yaxshi esda saqlab qolishga yordamlashadi.

Ta’lim oluvchilarning individual yosh xususiyatlarini inobatga olish tamoyili o‘quv materiallarining mazmuni uning hajmi, xarakteri, u yoki bu sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojiga, umumiy tayyorgarligiga, saviyasi va imkoniyatlariga loyiq bo‘lishi tushuniladi. Yoshiga muvofiq yondashish o‘quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma’naviy-axloqiy sifatleri, ijtimoiy yetukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo‘yilayotgan talablar yoki ta’limning tashkiliy tuzilishi o‘quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgari ketse, o‘quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondashish o‘quvchilarning murakkab ichki dunyosini o‘rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo‘ladigan ko‘p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.

Ta’limda bilim, ko‘nikma va malakalarni puxta va mustahkam o‘zlashtirish tamoyili muhim didaktik talab va qoidalarni, ya’ni o‘quvchilar tomonidan tizimli va ongli o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkam, esda saqlab qolish hamda o‘zlashtirilgan ilmiy bilimlarni o‘z turmush faoliyatlarida qo‘llay olish malakalari bilan qurollantirishni nazarda tutadi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g‘oyalari, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o‘zlashtirish, o‘rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Integrativlik tamoyili texnologiya fanining uzluksiz ta’limdagi integratsiyalashuvi ya’ni matematika, chizmachilik, kimyo, fizika, biologiya, informatika, geografiya fanlari bilan o‘zaro bog‘liqligi hamda mavjud fanlarni o‘ziga xos xususiyatlarga egaligini inobatga olib mavzularni o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

Politeknik tamoyil – texnologiya ta’limi bosqichlari orasidagi izchillik politeknik tamoyil uchun katta ahamiyatga ega. Ustaxonalardagi mashg‘ulotlarda o‘smirlar quyi sinflarda o‘zlashtirgan qator politeknik malakalarni qo‘llashi va takomillashtirishi juda muhim. Qog‘ozni rejalashda chizg‘ich, go‘niya va qalamdan foydalanish malakasini egallash va metallni rejalashda qo‘llash kerak. Bu jihatdan o‘quvchilarning andaza rejalash malakalari juda foydali bo‘ladi. O‘quvchilar qog‘ozni, gazlamani va listli qaychi bilan qirg‘ich orasida ko‘pgina umumiylikni topadi. Modellashtirish jarayonida o‘quvchilar yana shu ish bo‘yicha quyi sinflarda olgan bilimlarini qo‘llashi va hokozalar uchun cheklanmagan imkoniyatlar vujudga keladi.

Unumli mehnat asosida o‘qitish tamoyili ayrim pedagogika nazariyotchilari o‘qitishni unumli mehnat bilan qo‘shib olib borib bo‘lmaydi degan fikrni ilgari surgan edilar. Texnologiya ta’limi darslarida bajariladigan ishlar mashq asosida olib borilsa yetarli bo‘ladi degan noto‘g‘ri fikrni ilgari surgan edilar. Lekin hayot shuni ko‘rsatdiki bu fikr noto‘g‘ri ekanligini ya’ni o‘quvchi o‘z mehnatining yakunini ko‘rgandagina unda mehnatga qiziqish hamda mehnat kishisiga hurmat ortishi isbotlangan. Shuning uchun ham texnologiya ta’limi darslari unumli mehnat asosida tashkil etiladi.

Bo‘lajak texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda loyihalash tamoyillaridan foydalanish ham muhim hisoblanadi. Bo‘lajak mutaxassislariga ixtisoslik fanlarini o‘qitishda konstruksiyalash va modellashtirish asoslari bo‘yicha kompetentlikka ega bo‘lishi hamda mashg‘ulotlarni tashkil etishda loyihalashtirish tamoyillarini mukammal o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Ta’lim mazmunining loyihalash tamoyillari quyidagilardan iborat: ta’lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili; ta’lim mazmunining tashkiliy jarayon bilan aloqadorlik tamoyili; ta’lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili; ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili; ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili; ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili; ta’limning mazmuni muntazamligi tamoyili; ta’lim mazmunining o‘quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili

Ta’lim mazmunining barcha elementlarining jamiyat, fan, madaniyat va shaxs rivojlanishi talablariga mos bo‘lishi tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmuniga an’anaviy bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan birga jamiyatning rivojlanganligi, ilmiy bilim, madaniy hayot darajasi va shaxsning rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi fanlarni kiritishni talab etadi.

Ta’lim mazmunining tashkiliy-jarayon bilan aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim mazmunini tanlashda bir tomonlama yondashishni rad etadi. U aniq bir o‘quv jarayonini amalga oshirish bilan bog‘liq tashkiliy shart-sharoitni hisobga olishni ko‘zda tutadi. Bu texnologiya ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashning ta’lim mazmunini loyihalashtirish jarayonida taqdim etish va o‘zlashtirish tamoyillari, texnologiyasi, darajasi va u bilan bog‘liq hatti-harakatlarni hisobga olish kerakligini anglatadi.

Ta’lim mazmunining yaxlit strukturaga aloqadorlik tamoyili. Bu tamoyil ta’lim tizimining turli bosqichlarida nazariy bilimlarning berilishi, o’quv fani, o’quv materiali, pedagogik faoliyat, o’quvchi shaxsi kabi komponentlarining o’zaro mosligini ko’zda tutadi.

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish tamoyili. Bu tamoyil birinchi navbatda o’quvchilarning umuminsoniy va milliy madaniyatni faol ijodiy va amaliy o’zlashtirishlari uchun shart-sharoitlar yaratish bilan bog’liqdir. Buning uchun insonparvar g’oyalar oliy ta’lim mazmuniga singdirilishi kerak. Bu esa o’z navbatida ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy fanlarning o’zaro bog’liqligi va o’zaro munosabatlari tamoyilining o’zgartirilishin talab etadi, uning asosini shaxsga yo’nalganlik tashkil etishi zarur.

Ta’lim mazmunini fundamentallashtirish tamoyili ta’limni insonparvarlashtirishdagi to’siqlarni yo’qotishga imkon beradi. U ijtimoiy-gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlarni birlashtirish, ketma-ketlikni o’rnatish va fanlararo aloqalarni o’quvchilarning idrok etishi va amaliy faoliyat metodologiyasining mohiyatini anglab etishlariga tayanishni talab etadi.

Ta’lim mazmunining ketma-ketligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta’lim mazmunini o’sib boruvchi yo’nalishda rejalashtirishdan iborat bo’lishini anglatadi, bunda birinchi navbatda har bir yangi bilim avvalgisiga tayanadi va undan kelib chiqadi.

Ta’limning mazmuni muntazamligi tamoyili. Ushbu tamoyil o’rganilayotgan bilimlar va shakllantirilayotgan malakalar va kompetentsiyalarni yagona tizimdagi o’rni, oliy ta’lim, barcha o’quv kurslari va yaxlit mazmunning bir-biriga hamda umuminsoniy, milliy madaniyat tizimi aloqadorlikda ko’rib chiqishni ko’zda tutadi.

Ta’lim mazmunining o’quvchilar yosh xususiyatlariga mosligi tamoyili. Mazkur tamoyil ta’lim mazmunini loyihalashda o’quvchilarning yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasini hizobga olishni ko’zda tutadi. Ma’lum bir yosh davriga mos bilim, ko’nikma, malaka va kompetentsiyalar tizimi ta’lim mazmunida aks ettiriladi.

Xulosa qilib aytganda, texnologik ta’lim o’qituvchilarini tayyorlashda ta’lim mazmunini tanlashda pedagogik, didaktik-metodik, loyihalash tamoyillari asosida amalga oshirilsa, bo’lajak mutaxassislarining pedagogik faoliyatida, tashkiliy – boshqaruv faoliyatida, ilmiy-tadqiqot faoliyatida, ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida kasbiy-pedagogik innovatsion faoliyati modernizatsiyalashadi.

Adabiyotlar:

1. Kayumova N.A. Informatika o’qituvchisining metodik tizimini loyihalashtirish. – T.: «Zamonaviy ta’lim», 2017. – 4-10-betlar.
2. Малев В.В. Общая методика преподавания информатики: Учебное пособие. - Воронеж: ВГПУ, 2005. - 271 с.
3. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O’quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
4. Muslimov N.A., Qo’ysinov O.A., Abduraxmonov SH., Abdullayeva Q.M., Gaipova N.S. Bo’lajak kasb ta’limi o’qituvchilarini metodik kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi, Toshkent 2014 yil. 6,75 b.t.
5. Shakhnoza K, Makhbuba K Interactive technologies as a means to improve the efficiency and quality of the educational process. International Journal of Human Computing Studies 3 (2), 182-186.
6. Kuliyeva SH Improving teaching aids in the training of future technology teachers. International Journal of Early Childhood 14 (03), 2022.
7. El papel de las tecnologías pedagógicas modernas en la formación de la competencia comunicativa de los estudiantes. Halimovna K.S, Nurilloevna M.O, Radzhabovna K.D, Shavkatovna R.G Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades 4 (15), 261-266.
8. Стефанова Н. Л. Теоретические основы развития системы методической подготовки учителя математики в педагогическом вузе: Автореф. докт. дисс. - СПб., 1996.
9. Вороненко Т. А., Н.И. Рыжова Информатика ўқитиш методикаси. Махсус техника: Талабалар учун дарслик. - Санкт-Петербург: Рос. пед. ун-т, 1997.